

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025  
MAY




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar





*Elektron nashr,  
150 sahifa, may, 2025-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Iloxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 - Makroiqtisodiyot  
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 - Ekonometrika va statistika  
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 - Marketing  
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 - Menejment  
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

## Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan  
“Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan  
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati”ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha  
“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali ro'yxatga kiritilgan.

## M u a s s i s: “Tadbirkor va ishbiarmon” MChJ

### H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirish imkonoyatlari .....	12
<b>Soatova Nodira Boboxanovna</b>	
Bank aksiyalarining bozor bahosini shakllantiruvchi omillar va baholash metodologiyasi .....	18
<b>Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarini yanada rivojlantirish va ular samaradorligini oshirish.....	23
<b>Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna</b>	
Kichik biznesni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari .....	31
<b>Nematulloyev Suxrob Sobirovich</b>	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish .....	35
<b>Nuraliyeva Komila Sanakulovna</b>	
Prospects for improving the efficiency of deposit operations in commercial banks .....	42
<b>Olimov Abror Axadjon o'g'li</b>	
Bank tizimida moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar mohiyati va ahamiyati.....	51
<b>Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich</b>	
Elektron tijoratnini rivojlantirishni boshqarish samaradorligini baholash natijalari tahlili.....	57
<b>Madieva Zuxra Iskandarbekovna</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlar barqaror ish bilan bandligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	63
<b>Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi</b>	
Qurilish materiallari sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	70
<b>Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li</b>	
The role of sports marketing in training leadership personnel in the sports management system.....	75
<b>B.Y.Hamraev</b>	
Sanoat korxonalarida quyosh energiyasidan foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari .....	79
<b>Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi</b>	
Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasi .....	85
<b>Normurodov Xusan Eshmaxmatovich</b>	
Роль центрального банка в контроле инфляции: политика инфляционного таргетирования .....	95
<b>Камилова Наргиза Абдукахоровна, Пиримкулов Фирдавс Шухратович</b>	
Ко'pkari ot sporti o'yini chavandozlari sport kiyimini ishlab chiqish uchun tavsiya etilayotgan matolarning xususiyatlari tahlili .....	102
<b>Musayeva Lobar Sayfullayevna, Po'latova Saboxat Usmanovna</b>	
Оценка технико-экономических показателей автономной фотоэлектрической установки с устройством очистки от снега.....	107
<b>Юлдошев Исроил Абриевич, Рустамова Шахноза Шухрат кизи, Ботиров Бозорбек Мусурмон угли, Жураев Обид Шавкатович, Атоева Мохинур Амриллаевна</b>	



Some considerations about the specific features of advertising texts.....	116
<b>Mustaqimova Kunduz Sobirovna</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari amaliyoti tahlili.....	121
<b>Tangriev Izzat Raxmatullaevich</b>	
Fransuzcha va o'zbekcha terminlar vektori asosidagi semantik o'xshashlik.....	125
<b>Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Abduaxadova Zilola Jamoliddinovna</b>	
Sayyohlik tilining raqamli tadqiqi: fransuz va o'zbek terminlarining multimodal vektor va vizual xaritalanishi.....	131
<b>Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna</b>	
Обеспечение финансовой устойчивости предприятий: проблемы и решения .....	136
<b>Аллаберганов Зокир Гойибович</b>	
Qurilish korxonalarini boshqarishning tashkiliy mexanizmlarini shakllantirishdagi muammolar .....	142
<b>Alijonov Jamshid Alijon o'g'li</b>	



## QURILISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR

### Alijonov Jamshid Alijon o'g'li

Renessans ta'lim universiteti Assistenti

ORCID: 0009-0009-4651-2064

alijonovjamshid69@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi kunda Respublikamizda faoliyat olib borayotgan qurilish korxonalarining tashkiliy mexanizmlarida mavjud muammolar yoritilgan. Qurilish korxonalarining tashkiliy tuzilmasi, uni takomillashtirish zarurati va bu borada kadrlar bilim va malakasini oshirish ehtiyoji asoslab berilgan. Shuningdek, boshqaruv tizimini samarali tashkil etish uchun rahbar va xodimlarning funksional vazifalari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** qurilish sohasi, qayta tayyorlash, kasb-hunar ta'limini takomillashtirish, "Shaffof qurilish" MAT, funksional tashkiliy tuzilma, boshqaruv usuli, sinergetik samara.

**Abstract:** This article examines the current issues in the organizational mechanisms of construction enterprises operating in the Republic. It substantiates the necessity of improving the organizational structure of these enterprises and enhancing the knowledge and skills of personnel essential for their development. The paper also analyzes the responsibilities of managers and employees crucial for effective administrative organization.

**Keywords:** construction sector, retraining, improvement of vocational education, "Transparent Construction" MAT, functional organizational structure, management method, synergistic effect.

**Аннотация:** В статье рассмотрены проблемы, существующие в организационных механизмах строительных предприятий, действующих в настоящее время на территории Республики. Обоснована необходимость совершенствования организационной структуры строительных организаций, а также повышения уровня знаний и квалификации кадров, необходимых для их развития. Также проанализированы функции руководителей и сотрудников, обеспечивающих эффективное управление.

**Ключевые слова:** строительная отрасль, переподготовка, совершенствование профессионального образования, MAT «прозрачное строительство», функциональная организационная структура, метод управления, синергетический эффект.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar markazida inson kapitalini rivojlantirish masalasi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, iqtisodiyotning strategik sohalaridan biri bo'lgan qurilish tizimi bugungi kunda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, malakali mutaxassislarni



talab qilmoqda. Bu esa soha xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarini tizimli yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

Globalashuv sharoitida mamlakatimizning barcha sohalarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Iqtisodiy muammolarni hal etish masalasi esa davlatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Iqtisodiyotda sodir bo'layotgan islohotlar va innovatsion yangiliklar aholining kundalik hayotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi o'tish davrida yuqori malakali, o'z ishining ustasi bo'lgan, mehnatkash va salohiyatli kadrlarni tayyorlash qurilish sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki faqat chuqur bilim va zamonaviy ko'nikmalarga ega kadrlargina jahon standartlariga mos mahsulotlarni yaratishga, xalqaro bozorda raqobatlasha oladigan loyihalarni amalga oshirishga qodir bo'ladilar.

Demak, hozirgi sharoitda kadrlar masalasiga jiddiy va tizimli yondashuv zarur: mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, ularning kasbiy salohiyatini oshirish, amaliy va nazariy tayyorgarlikni mustahkamlash zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-sonli "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, ushbu sohani modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgan bir qator ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib, bu maqsadlarga erishish uchun "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

Tashkilotlarda boshqaruv tizimini shakllantirish, samarali tashkiliy mexanizmlarni yo'lga qo'yish masalalari bo'yicha N.K. Yo'ldoshev va G.E. Zaxidov o'zlarining "Menejment" darsligida batafsil ilmiy qarashlarini bayon etganlar. Ularning fikricha, tashkilot – bu umumiy maqsad yo'lida birlashgan shaxslarning faoliyatini ifodalovchi tizim bo'lib, unda sinergetik samara (ya'ni, hamkorlikdagi harakat samaradorligi) muhim o'rin tutadi.

Boshqaruvning zarurligi haqida N.M. Ziyavitdinova, Y.M. O'rinov va Sh.N. Xayitov o'zlarining "Menejment" nomli o'quv qo'llanmasida shunday ta'kidlaydilar: "Korxonalar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun vazifalarni vertikal mehnat taqsimoti asosida bajarishlari lozim. Hatto yirik tashkilotlarda ham ko'plab rahbarlar boshqalar ishini yo'naltirish bilan bog'liq bo'lmagan vazifalarni bajarishga majbur bo'ladilar."

Shuningdek, N.Q. Yo'ldoshev va V.I. Nabokov "Menejment nazariyasi" darsligida tashkilotlar faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish muhimligini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikricha: "O'zbekiston Respublikasi hali ham bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirish bosqichida turibdi. Mazkur jarayonning huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida bir qator yo'nalishlar yangilangan. Bu eng muhim yo'nalishlardan biri – tashkilotlar faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish hisoblanadi."

Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, eng avvalo, u yerda ishlayotgan kadrlar va ularning salohiyatiga bog'liq. "Hamma narsani kadrlar hal qiladi" degan tamoyil bugungi kunda, iqtisodiy islohotlar bosqichida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Iqtisodiy nazariyaga ko'ra, ishlab chiqarishdagi asosiy "shaxs" – bu insonning mehnat qilishga bo'lgan jismoniy va aqliy qobiliyatlarini mujassam etgan ishchi kuchidir.

Ushbu maqolada ham biz aynan kadrlar masalasini asosiy ilmiy yo'nalish sifatida ilgari surdik. Bu borada E.Sh. Shodmonov, D.Sh. Bababekova va B.O. Tursunov o'zlarining "Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" darsligida yuqorida keltirilgan tamoyillarni chuqur tahlil qilgan va dolzarb ilmiy xulosalar berganlar.

Taniqli olimlar N.M. Ziyavitdinova, Y.M. O'rinov va Sh.N. Xayitovning ta'kidlashicha, xodimlar nazorat ostida bo'lgan sohalarda yuqori samaradorlik bilan ishlaydilar, nazorat qilinmaydigan holatlarda esa ish sur'ati pasayadi. Bu turdagi xatti-harakat ilmiy adabiyotlarda "nazoratga yo'naltirilgan xatti-harakat" deb ataladi. Shuning uchun, tashkilotning boshqaruv va nazorat tizimlarini ishlab chiqishda ana shunday xatti-harakat turlarini inobatga olish nihoyatda muhimdir. Aks holda, tashkilot o'z maqsadlariga erisha olmasligi mumkin.

Shuningdek, ular nazoratning yana bir muhim jihatini – kerakli axborotni shakllantirishga turtki berishini ta'kidlaydilar. Aksincha, keraksiz yoki ortiqcha axborot oqimi tashkilot resurslarining noto'g'ri yo'naltirilishiga va rivojlanish imkoniyatlarining boy berilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu boisdan, zamonaviy menejment nazariyasi asosida nazorat tizimlarini ilmiy asosda shakllantirish tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan qurilish korxonalarining tashkiliy mexanizmlarida mavjud muammolar nazariy jihatdan tahlil qilindi. Shu bilan birga, amaldagi statistik ma'lumotlarga tayangan holda qurilish sohasining rivojlanish sur'atlari, bandlik darajasi, davlat dasturlarining ahamiyati hamda muammolarni bartaraf etish yo'nalishlari o'rganildi.

Tadqiqot uslubi sifatida:

Solishtirma tahlil – mavjud holatni boshqa davrlar yoki mintaqalar bilan taqqoslash;

Tizimli yondashuv – soha ichidagi barcha bo'g'inlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash;

Empirik tahlil – amaldagi raqamlar va statistik axborotlar asosida umumlashmalar chiqarish;

Ilmiy-nazariy mulohaza – mavjud nazariyalar asosida natijalarni baholash usullari qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish sohasi – bu jamiyat hayotining barcha jabhalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan strategik tarmoqdir. Infratuzilma, uy-joy, yo'l va ko'priklar, sanoat obyektlari, ijtimoiy binolar – bularning barchasi qurilish sohasining asosiy yo'nalishlariga kiradi. Ushbu soha iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda qurilish sohasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

Yiliga o'rtacha 150 mingdan ortiq yangi uy-joylar qurilmoqda;

Maktablar, kasalxonalar, bog'chalar kabi ko'plab ijtimoiy obyektlar barpo etilmoqda;

Qishloq joylarda namunaviy uylar qurilishi bo'yicha maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda.

Bu ko'rsatkichlar sohaning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, qurilish sohasining o'sishi bandlik darajasining oshishiga, aholi yashash sharoitlarining yaxshilanishiga va ichki bozorning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy qurilish sohasi texnologik taraqqiyot sharoitida doimiy rivojlanib bormoqda. Bu holat, o'z navbatida, sohaga zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan muhandislar, loyihachilar, montajchilar va boshqa ishchi mutaxassislarni muntazam tayyorlab borishni zarur qiladi. Har qanday sohada ish faoliyatini samarali tashkil etish, eng avvalo, kichik va oddiy jarayonlarni to'g'ri yo'lga qo'yishdan boshlanadi. Har bir amaliy harakat, yig'indida, umumiy strategik rejani amalga oshirishga xizmat qilishi lozim.

Ish faoliyatini tashkil etish bo'yicha bir qator asosiy talablarga rioya etilishi zarur. Bular jumlasiga ish faoliyatining aniq maqsadini belgilash, rejalashtirishni to'g'ri tashkil etish, loyiha ishlarini tizimli amalga oshirish, xodimlarning ish o'rnini to'g'ri joylashtirish, ularning vazifalarini aniq belgilash, zaruriy texnik vositalar va uskunalar bilan ta'minlash, texnologik jarayonlarni yo'lga qo'yish, moddiy va moliyaviy resurslar bilan uzluksiz ta'minlash, ishchi kuchi sonining yetarliligini kafolatlash hamda barcha jarayonlarni doimiy nazorat ostida ushlab borish kiradi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga asosan, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish maxsus markazlar tomonidan amalga oshiriladi. Iqtisodiyot tarmoqlarida, xususan, bank, moliya, soliq tizimlari va real sektor vakillari uchun bu jarayon Bank-moliya akademiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Qayta tayyorlash jarayoni, asosan, buyurtmachilar tashabbusi asosida tashkil etiladi. Unda tinglovchilar kunduzgi shaklda, asosiy ish joyidan ajralgan holda qatnashadilar. O'quv muddati 16 hafta davom etadi, bu davrga ikki haftalik amaliyot ham kiritilgan bo'lib, umumiy o'quv yuklamasi kamida 576 soatni tashkil etadi. Kursni muvaffaqiyatli tugatgan va yakuniy attestatsiyadan o'tgan tinglovchilarga maxsus diplom beriladi.



Shu bilan birga, 2023-yilning oktyabr oyida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish va ularning bilim darajasini doimiy ravishda baholab borish maqsadida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzurida Kompetensiyani rivojlantirish instituti tashkil etildi. Mazkur institut tomonidan shaharsozlik va uy-joy kommunal xo'jaligi yo'nalishidagi 10 ta soha kesimida 42 mingdan ortiq mutaxassisni bosqichma-bosqich o'qitish rejalashtirilgan.

Bu boradagi maxsus o'quv dasturlari Turkiya bilan hamkorlikda, AQShning Muhandislik va texnologiya bo'yicha akkreditatsiya kengashi – ABET tomonidan tan olingan xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan va Istanbul texnika universiteti tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazilgan. Mazkur dasturlar elektron tizim orqali raqamlashtirilgan bo'lib, Bilim va malakalarni baholash agentligining tizimi bilan to'liq integratsiyalashgan. Natijada, o'qishni tamomlagan mutaxassislar yakuniy testdan o'tib, yetarli ball to'plagan taqdirda, "Shaffof qurilish" MAT orqali QR-kodli elektron sertifikatni yuklab olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu sertifikat mutaxassisga unda ko'rsatilgan faoliyat turi bilan uch yil davomida qonuniy shug'ullanish huquqini beradi.

Joriy yilning 2024-yil aprel oyida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Kompetensiyani rivojlantirish institutida qurilish va shaharsozlik sohasida faoliyat yurituvchi nazorat inspektorlari uchun malaka oshirish kurslari boshlanganligi vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilindi.

Ma'lumki, boshqa barcha sohalar qatori bunyodkorlikda ham raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etish orqali shaffoflikni ta'minlash, qurilish jarayonlarini yuqori sifat darajasida amalga oshirish va monitoring qilish bo'yicha innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning malakasini oshirish, ularning bilim va ko'nikmalarini xalqaro tajriba asosida yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur maqsadda ishlab chiqilgan o'quv dasturi nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan holda, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilish, ularni bartaraf etish hamda ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ish faoliyatini samarali tashkil etishni o'rgatishga yo'naltirilgan. Mutaxassislarga qo'yilayotgan asosiy talablar – ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash, chuqurlashtirish, texnik tayyorgarlik darajasini oshirishdan iborat.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonlari mutaxassislarning kompetensiyalarini doimiy yangilash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonning muddati, mazmuni, shakli va davriyligi tegishli vazirlik va idoralar tomonidan belgilanadi. Shu bilan birga, qonun hujjatlari asosida ayrim kasbiy guruh vakillarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashga doir majburiy talablar belgilab qo'yilishi mumkin. Malaka oshirish yoki qayta tayyorlashni muvaffaqiyatli yakunlagan shaxslar davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat bilan taqdirlanadi.

Qayta tayyorlash – bu ilgari boshqa yo'nalishda ishlagan yoki ta'lim olgan shaxsni yangi kasbga tayyorlash jarayonidir.

Malaka oshirish – bu mutaxassisning mavjud bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini yangilash va chuqurlashtirishga qaratilgan ta'lim shaklidir.

Bugungi kunda ushbu ikki yo'nalish ayniqsa qurilish sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki:

Qurilishda qo'llanilayotgan texnologiyalar tezlik bilan yangilanmoqda;

Mehnat bozorida raqobat kuchaymoqda;

Ekologik va texnik xavfsizlikka doir talablar ortib bormoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar bu sohadagi islohotlarni jadallashtirishga xizmat qildi. Xususan:

2018-yil 25-yanvardagi "Kasb-hunar ta'limini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qaror;

2021-yilda tashkil etilgan "O'zbekiston quruvchilari palatasi" faoliyati;

2022-yilda ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – yangi kasb egalari bilan" tashabbusi doirasida qayta tayyorlash markazlarining kengaytirilishi.

Ushbu hujjatlar asosida bugungi kunda respublikaning barcha hududlarida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlari faoliyat yuritmoqda.

Qurilish sohasida malaka oshirish quyidagi shakllarda amalga oshirilmoqda:

Qisqa muddatli kurslar (1–3 oy davomida): amaliy ko'nikmalar, qurilish texnologiyalari, mehnat xavfsizligi bo'yicha;

Uzoq muddatli qayta tayyorlash dasturlari (3–6 oy): boshqa sohalarda ishlagan fuqarolarni qurilish sohasiga moslashtirishga qaratilgan;

Modulli o'quv dasturlari: xalqaro standartlarga muvofiq modullar asosida shakllantirilgan o'quv rejalariga tayanadi;

Onlayn kurslar va vebinarlar: masofaviy ta'lim formatida tashkil etiladi.

Hozirda mamlakat bo'yicha 40 dan ortiq maxsus markaz faoliyat yuritmoqda. Ulardan ayrimlari:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi Malaka oshirish markazi;

Hududiy qurilish kollej va texnikumlari;

Xalqaro hamkorlik asosida faoliyat yuritayotgan markazlar (masalan, Germaniyaning GIZ tashkiloti, Koreyaning KOICA dasturi va boshqalar).

Ushbu markazlarda quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ta'lim jarayoni yo'lga qo'yilgan:

Zamonaviy texnologiyalar asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi;

Xorijiy mutaxassislar jalb etiladi;

Ishlab chiqarish amaliyotiga asoslangan treninglar tashkil qilinadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida qurilish ishlarini tashkil etish va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini shakllantirish murakkab va kompleks jarayon hisoblanadi. Qurilish sanoati ishlab chiqarishning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi asosiy soha sanaladi. Ushbu sohaning to'g'ri tashkil etilishi va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun faqat malakali quruvchilar emas, balki zamonaviy raqamli texnologiyalarni puxta biladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mutaxassislari ham talab qilinadi.

Qurilish korxonalarini samarali boshqarish uchun, ularning maqsad va funksional vazifalariga mos keladigan, tashqi va ichki omillarga bardosh bera oladigan optimal tashkiliy tuzilmani tanlash muhim ahamiyatga ega. Bunday tuzilma tashkilotning uzoq muddatli faoliyat barqarorligini kafolatlashga xizmat qiladi. Qurilish tashkiloti boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish esa turli boshqaruv shakllarining uyg'unligiga, boshqaruv apparati doirasida aniq mas'uliyat taqsimotiga asoslanadi. Bu esa tuzilmaning yaxlitligi va moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Tashkilotning barqaror ishlashi va rivojlanishi alohida bo'limlar, xizmatlar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro funksional bog'liqliklar orqali shakllanadi. Tashkilot faoliyatining samarali yuritilishi sinergetik samaraga, ya'ni hamkorlikdagi harakatlar natijasida yuzaga keladigan ortiqcha foydaga tayanadi.

Sinergetik samaradorlik quyidagi omillar orqali vujudga keladi:

xodimlar va bo'limlar o'rtasida mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv;

tashkiliy va korporativ madaniyatning shakllanishi;

xodimlar o'rtasida kasbiy tajriba va bilim almashinuvi;

moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va ulardan samarali manevr qilish;

har bir xodimning shaxsiy va kasbiy xususiyatlariga mos ish joyini belgilash;

turli mutaxassislarning tajriba va bilimlarini yagona tashkilot yoki bo'limda birlashtirish.

Boshqaruv apparati tarkibi va bo'limlararo munosabatlar sxemasi ishlab chiqarish va boshqaruv o'rtasidagi funksional bog'liqliklar asosida shakllantiriladi. Amaliyotda qurilishda quyidagi boshqaruv tuzilmalaridan foydalaniladi: chiziqli, funksional, shtab, chiziqli-funksional. Vertikal bog'lanishlar to'g'ridan-to'g'ri rahbar bo'ysunuviga asoslanadi, gorizontal bog'lanishlar esa qarorlar izchilligi orqali vujudga keladi.

Biroq, chiziqli boshqaruv shaklining kamchiligi shundaki, rahbar malakasiz qaror qabul qilganda butun tuzilmaning faoliyat samaradorligi cheklanishi mumkin. Shuning uchun bu shakl, odatda, faqat kichik qurilish tashkilotlarida qo'llaniladi. Yirik qurilish kompaniyalari esa ko'proq chiziqli-funksional tuzilmalardan foydalanishga intilmoqda.

Qurilish tashkiloti boshqaruv tuzilmasining samaradorligi bir qator talablarga muvofiqligi bilan belgilanadi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi: tashkilot missiyasi va maqsadlariga yo'naltirilganlik, strategik rivojlanishga xizmat qilishi, ichki o'zgarishlarga moslashuvchanlik, boshqaruv apparati xarajatiga nisbatan natija koeffitsienti va qaror qabul qilish tezligi.



Shuningdek, tashkilot tuzilmasi bo'yicha qarorlar qabul qilinayotganda tashkiliy tuzilmani shakllantirish tamoyillarini hisobga olish zarur. Bular quyidagilardan iborat: ierarxik soddalik, funksional moslik, boshqaruv sathi sonining optimal darajada belgilanishi, axborot oqimlarining aniq yo'naltirilganligi va tarmoqlarning o'zaro uzviy bog'liqligi.

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi bilan bir qatorda, qurilish tashkilotlarining tashkiliy tuzilmasiga tashqi omillarning ta'siri ortib bormoqda. Bu esa mavjud boshqaruv strukturalarini qayta ko'rib chiqish, ularni yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. An'anaviy namunaviy tuzilmalardan foydalanish qisqarib, ularning o'rnini sohaning real ehtiyojlariga moslashgan, moslashuvchan va innovatsion yondashuvlarga asoslangan boshqaruv tizimlari egallamoqda.

Shunday qilib, bugungi kunda qurilish tashkilotining tashkiliy boshqaruv tuzilmasi ishlab chiqarish faoliyatini maksimal darajada samarali boshqarishni ta'minlovchi tizimga aylanishi zarur. Bunday tizim muvofiqlik, samaradorlik, tezkorlik, moslashuvchanlik va maqsadga yo'naltirilganlik prinsiplari asosida shakllantirilishi lozim.

Korxonalar faoliyatini samarali boshqarishda tashkiliy tuzilmani to'g'ri shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Aynan tashkiliy tuzilmaning aniq va maqsadga muvofiq tanlanishi korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi. Amaliyotda korxonalarda tashkiliy tuzilmaning yettiga yaqin turi mavjud bo'lib, ular orasida to'rttasi eng ko'p qo'llaniladi: funksional tuzilma, bo'linmaviy tuzilma, matritsali tuzilma va tarmoq (guruhli) tuzilma.

#### 1. Funksional tashkiliy tuzilma.

Bu turdagi tuzilmada kompaniya xodimlari tajriba yoki mutaxassislik yo'nalishiga qarab guruhlanadi. Boshqacha qilib aytganda, ishchi faoliyat biznes funksiyalari atrofida tashkil etiladi. Umumiy funksional bo'limlarga quyidagilar kiradi:

Marketing: reklama, brending, marketing kampaniyalari bilan shug'ullanadi;

Operatsiyalar: ishlab chiqarish jarayonlari va ta'minot zanjirini nazorat qiladi;

Moliya: buxgalteriya hisobi, byudjet tuzish va investitsiyalarni boshqaradi;

Kadrlar bo'limi (HR): ishga qabul qilish va inson resurslarini boshqarish bilan shug'ullanadi;

Axborot texnologiyalari (IT): ichki raqamli tizimlar va texnik ta'minotni yuritadi.

Ushbu bo'limlarning har biri alohida boshliq – vitse-prezident yoki funksional direktor tomonidan boshqariladi.

#### 2. Bo'linmaviy tuzilma.

Bu tuzilma, odatda, diversifikatsiyalangan, ya'ni turli soha yoki geografik hududlarda faoliyat yurituvchi yirik kompaniyalar uchun samaralidir. Har bir bo'lim mustaqil mini-korxonalar sifatida faoliyat yuritib, o'zining marketing, ishlab chiqarish, savdo va boshqa xizmatlariga ega bo'ladi. Bo'lim rahbarlari to'g'ridan-to'g'ri bosh direktor (CEO)ga hisobot beradilar. Bu holatda har bir bo'linma o'z manfaatlari va foydasiga yo'naltirilgan qarorlarni qabul qiladi.

#### 3. Matritsali tashkiliy tuzilma.

Mazkur tizimda xodimlar bir vaqtning o'zida ikkita rahbar – funksional rahbar va loyiha menejeriga hisobot beradilar. Bunday tuzilmaning afzalligi – loyihalarni samarali boshqarish, resurslarni moslashuvchan taqsimlash va xodimlarning ko'p yo'nalishli malaka orttirishidir. Biroq, bir vaqtning o'zida ikki rahbarga bo'ysunish muammoli holatlar, mas'uliyat chalkashligi va nizolarga sabab bo'lishi mumkin.

#### 4. Guruhli (tarmoq) tashkiliy tuzilma.

Bu tuzilmada har bir loyiha uchun yangi jamoa shakllantiriladi. Loyihalar yakunlangach, jamoa tarqatiladi. Har bir ishchi rol o'zining lavozimi emas, balki bilim, ko'nikma va tajribasi asosida belgilanadi. Bu tizim moslashuvchan bo'lib, tez o'zgaruvchan bozor talablariga javob bera oladi.

Boshqaruv usullari.

Korxonada boshqaruv usuli deganda xodimlar va jamoalarga ta'sir etish, ularni umumiy maqsad sari yo'naltirish va vazifalarni aniq tushuntirish orqali natijaga erishish yo'llari tushuniladi. Boshqaruvning asosiy uchta usuli mavjud:

Ma'muriy usul – hodimlarning vazifalari qat'iy belgilab beriladi, faoliyat me'yoriy hujjatlar asosida olib boriladi, va intizomiy nazorat kuchli bo'ladi.



Iqtisodiy usul – bu usulda hodimlar moddiy rag‘batlantirish orqali natijaga erishishga undaladi. Bu mexanizm samarali mehnatga qiziqishni kuchaytiradi.

Ijtimoiy-psixologik usul – psixologik qulayliklar yaratish, jamoaviy muhitni sog‘lomlashtirish va motivatsiyani oshirish orqali samaradorlikka erishiladi.

## XULOSA

Respublikamiz qurilish sohasida boshqaruv mexanizmini tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha bir qator qonun hujjatlari, qarorlar hamda prezident farmonlari ishlab chiqilgan. Hozirda yurtimizda minglab qurilish korxonalari faoliyat yuritmoqda. Biroq, monitoring natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu korxonalarining barchasida ham faoliyat qonuniy va shaffof tarzda olib borilmayapti. Turli xil qonunbuzarliklar, yashirin iqtisodiyot ko‘rinishlari hamon mavjud.

Shu bois, qurilish sohasida islohotlarning davomiyligini ta‘minlash, huquqiy tartibot ustuvorligini kuchaytirish va, eng asosiysi, rahbar kadrlarning kasbiy mas‘uliyatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Sohadagi har qanday rivojlanish, eng avvalo, inson omiliga – bilimli, malakali, mas‘uliyatli rahbar va mutaxassislarga bog‘liqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ziyavitdinova N.M., O‘rinov Y.M., Xayitov Sh.N. Menejment: O‘quv qo‘llanma. – T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”, 2012. – 312 bet.
2. Yo‘ldoshev N.K., Zaxidov G.E. Menejment: Darslik. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2018. – 392 bet.
3. Shodmonov E.Sh., Bababekova D.Sh., Tursunov B.O. Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish: Darslik. – Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti – <https://stat.uz>
5. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi – <https://lex.uz>

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. May. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)